

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI**  
**OLIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIV ALR VAZIRLIGI**  
**Buxoro davlat universiteti**



« TASDIQLAYMAN »  
O'quv ishlari bo'yicha  
prorektor Liqlaeva R.G. - Jumaev  
« 25 » 02 2023 y.

**5110900- Pedagogika va psixologiya ta'limi yo'nalishi bitiruvchilari uchun**  
**ixtisoslik fanlaridan**  
**Yakuniy davlat attestatsiyasi imtihon**  
**DASTURI**

**3.00. Ixtisoslik fanlari:**

- 3.01. Pedagogik texnologiya.**
- 3.02. Pedagogik mahorat**
- 3.03. Pedagogik va psixologik fanlarni o'qitish metodikasi**
- 3.05. Psixologik xizmat asoslari**

## ANNOTATSIYA

5110900 - Pedagogika va psixologiya ta'lim yo'nalishi bo'yicha bakalavrlar tayyorlovchi oliy ta'limning o'quv reja va fan dasturi asosida amalga oshirildi. Fan dasturlarining nazariy va amaliy mashg'ulotlarini to'liq o'zlashtirgan, yakuniy davlat attestatsiyasidan muvaffaqiyatli o'tgan shaxsга «bakalavr» malakadarajasi hamda oliy ma'lumot to'g'risidagi davlat hammasidagi rasmiy hujjat(lar) berildi. Bakalavr yakuniy davlat attestatsiyasi doirasida o'quv rejadagi "3.00. Ixtisoslik fanlari" fanlari blokidagi pedagogik texnologiya, pedagogik mahorat, pedagogik va psixologik fanlarni o'qitish metodikasi, psixologik xizmat asoslari fanlari mazmunini qamrab olgan mavzulardan yakuniy davlat attestatsiyasi imtihonini topshiradilar.

Tuzuvchilar:

Sh.Sh.Olimov, Pedagogika kafedrasini mudiri,  
p.f.d., professor

A.M.Nazarov, Psixologiya kafedrasini mudiri,  
ps.f.f.d.(PhD), dotsent

B.T.Jurayev, Pedagogika kafedrasini o'qituvchisi

Tagrizchilar: Z.M.Hojieva, Buxoro shahar 13-umumiy o'rta

ta'lim maktabi direktori

Sh.R.Barotov, psixologiya fanlari doktori,  
professor

B.Q.Xodjayev, Pedagogika kafedrasini dotsenti,  
p.f.n.

Imtihon dasturi Buxoro davlat universiteti Kengashida ko'rib chiqilgan  
va tasdiqlangan.

2023 yil «31» 01 - dagi 8 - sonli bayonoma.

O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligidagi 2021 yil 16 noyabrda № 1963-3 son bilan ro'yxatga olingan Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirining 2021 yil 10 noyabrda № 38-2021-son buyrug'i bilan tasdiqlangan "O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim muassasalari bitiruvchilarining yakuniy davlat attestatsiyasi to'g'risida NIZOM"ga o'zgartirishlar kiritish haqida"gi № 38-2021-sonli buyrug'iga muvofiq ishlab chiqildi.

### Muqaddima

#### I. Umumiy qoidalar

#### II. Yakuniy davlat attestatsiyasi sinovlari

#### III. Yakuniy davlat attestatsiya komissiyalari tarkibi

#### IV. Yakuniy davlat attestatsiyasini o'tkazish tartibi

#### V. Yakuniy qoidalar

Mazkur Nizom O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida"gi qonuni va Oliy ta'limning Davlat ta'lim standartiga muvofiq oliy ta'lim muassasalari bitiruvchilarining yakuniy davlat attestatsiyasini o'tkazish tartibini belgilaydi.

### I. UMUMIY QOIDALAR

- Oliy ta'lim muassasalari bitiruvchilarining yakuniy davlat attestatsiyasi bakalavriat yo'nalishlari va magistratura mutaxassisliklari o'quv jarayoni jadvaliga muvofiq o'tkaziladi.
- Yakuniy davlat attestatsiyasi oliy ta'lim muassasidagi har bir ta'lim yo'nalishi (mutaxassisligi) bo'yicha tashkil etiladigan yakuniy davlat attestatsiya komissiyalari tomonidan amalga oshiriladi.
- Yakuniy davlat attestatsiyasi komissiyalarining asosiy vazifalari quyidagilardan iborat:  
bitiruvchining bilim, malaka va ko'nikma darajasining davlat ta'lim standartlari talablariga muvofiq kelishini kompleks baholash;  
yakuniy davlat attestatsiyasi natijalari bo'yicha bitiruvchilarga bakalavr (magistr) akademik darajasini berish masalasini hal qilish;  
komissiya faoliyatini natijalarini tahlil qilish va ular asosida oliy ma'lumotli kadrlar tayyorlashni takomillashtirish bo'yicha takliflar ishlab chiqish.
- Yakuniy davlat attestatsiyasi komissiyalari o'z faoliyatlarini mazkur Nizom hamda bakalavriat ta'lim yo'nalishlari va magistratura mutaxassisliklari bo'yicha bitiruvchilarining tayyorgarlik darajasi va ta'lim mazmuniga qo'yilgan Davlat ta'lim standartlari talablarini bajarishga yo'naltirilgan boshqa hujjatlarga tayangan holda olib boradilar.

## II. YAKUNIY DAVLAT ATTESTATSIVASI SINOVLARI

5. Yakuniy davlat attestatsiyasi ta'lim yo'nalishi (mutaxassisligi) o'quv rejalariga muvofiq quyidagi turlardagi attestatsiya sinovlaridan iborat: xorijiy til bo'yicha yakuniy davlat attestatsiya sinovi (oliy ta'lim muassasasi Kengashi qaroriga asosan o'tkazilishi mumkin);

ta'lim yo'nalishi bo'yicha fanlararo (majburiy fanlar) yakuniy davlat attestatsiya sinovi;

diplom loyihasi himoyasi; bitiruv malakaviy ish (magistrlik dissertatsiyasi) himoyasi.

6. Xorijiy til bo'yicha yakuniy davlat attestatsiyasi sinovi mazkur fanning davlat ta'lim standartida belgilangan zaruriy mazmundan kelib chiqqan holda o'quv dasturlari nazarda tutilgan materiallarni talaba tomonidan o'zlashtirilganlik darajasini aniqlashga yo'naltirilgan bo'lishi kerak.

7. Ta'lim yo'nalishi (mutaxassisligi) bo'yicha fanlararo yakuniy davlat attestatsiya sinovi fanlar mazmuniga qo'yiladigan talablar bilan bir qatorda, talaba tayyorgarligining mazkur ta'lim yo'nalishi (mutaxassislik) bo'yicha malaka talablarda bitiruvchiga nisbatan nazarda tutilgan umumiy talablarga ham javob bera olish darajasini aniqlashga yo'naltirilgan bo'lishi kerak.

8. Yakuniy davlat attestatsiyasini majburiy fanlardan (fanlararo) yakuniy davlat attestatsiya sinovi yoki diplom loyihasi himoyasi yoxud bitiruv malakaviy ishi (magistrlik dissertatsiyasi) himoyasi shaklida o'tkazilishi bitiruvchilarning iqtidori, xohishi va ta'lim xususiyatidan kelib chiqqan holda oliy ta'lim muassasasi Kengashi qarori bilan belgilanadi.

Yakuniy davlat attestatsiyasiga oliy ta'lim muassasasi Kengashi qaroriga asosan xorijiy til bo'yicha yakuniy davlat attestatsiya sinovi qo'shimcha sifatida kiritilishi mumkin.

Oliy ta'lim muassasasi Kengashining qarori bilan bitiruvchi uchun belgilangan yakuniy davlat attestatsiyasining shakli bir o'quv yili davomida o'zgartirilishiga yo'l qo'yilmaydi.

Yakuniy davlat attestatsiyasi sinovlari o'quv jarayoni jadvalida ko'rsatilgan muddatlarda fakultet dekani yoki o'quv-uslubiy bo'lim (boshqarma) tomonidan tayyorlangan, oliy ta'lim muassasasi o'quv ishlari bo'yicha prorektori tomonidan tasdiqlangan Yakuniy davlat attestatsiyasi sinovlari jadvali asosida o'tkaziladi.

9. Oliy ta'lim muassasalari tomonidan tajribali professor-o'qituvchilarni jalb etilgan holda yakuniy davlat attestatsiyasi sinovlarining dasturlari va baholash mezonlari ishlab chiqiladi hamda oliy ta'lim muassasasi Kengashi tomonidan tasdiqlanadi va yakuniy davlat attestatsiyasi boshlanishidan kamida uch oy oldin talabalar e'tiboriga yetkaziladi.

## III. YAKUNIY DAVLAT ATTESTATSIVASI KOMISSIYALARI TARKIBI

10. Yakuniy davlat attestatsiyasi komissiyalari raisligiga nomzodlar kafedra mudiri tomonidan tasdiqlash uchun oliy ta'lim muassasasi rektoriga (filial direktoriga) taqdim etiladi.

11. Yakuniy davlat attestatsiyasi komissiyasi raislari oliy ta'lim muassasasining idoraviy mansubligidan qat'i nazar, ushbu ta'lim muassasasidan faoliyat yuritmayotgan olimlar, ishlab chiqarishning tajribali mutaxassislaridan tegishli oliy ta'lim muassasasi rektorining (filial direktorining) buyrug'i bilan bir yil (kalendar yil) muddatga tasdiqlanadi.

Bir kishi ketma-ket bir oliy ta'lim muassasasida tegishli yo'nalish (mutaxassislik) bo'yicha ikki marta dan ortiq yakuniy davlat attestatsiyasi komissiyasining rasi bo'lishi mumkin emas.

12. Yakuniy davlat attestatsiyasi komissiyasi raislari rahbarligida oliy ta'lim muassasasi rektori (filial direktori) bilan birgalikda xorijiy til bo'yicha yakuniy davlat attestatsiya sinovi (oliy ta'lim muassasasi Kengashi qaroriga asosan) va (yoki) ta'lim yo'nalishi (mutaxassislik) bo'yicha fanlararo yakuniy davlat attestatsiya sinovi va diplom loyihasi yoki bitiruv malakaviy ishi (magistrlik dissertatsiyasi) himoyasi yoki majburiy fanlardan yakuniy davlat attestatsiya sinovini o'tkazish bo'yicha yakuniy davlat attestatsiyasi komissiyalari tarkibi shakllantiriladi.

13. Yakuniy davlat attestatsiyasi komissiyalari tarkibi mutaxassis tayyorlovchi oliy ta'lim muassasasining ilmiy-pedagogik kadrlari (attestatsiya komissiyasi umumiy tarkibining 50 foizigacha), shuningdek mazkur soha kadrlarining iste'molchilari bo'lgan korxonalar, tashkilot va muassasalarning yuqori malakali mutaxassislari, turdosh oliy ta'lim muassasalarining etakchi professor-o'qituvchi va ilmiy xodimlari, O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi tizimidagi tegishli soha olimlaridan iborat bo'ladi.

14. Yakuniy davlat attestatsiya komissiyalari tarkibi kamida 5 nafar professor-o'qituvchi va mutaxassislardan shakllantiriladi. Yakuniy davlat attestatsiyasida vasiylik kengashi va fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari vakillari, bitiruvchilarning ota-onalari yoki ularning qonuniy vakillari hamda kadrlar buyurtmachilari jamoatchilik asosida kuzatuvchi sifatida qatnashishi mumkin. Yakuniy davlat attestatsiya sinovlari jarayoni onlayn rejimda ovozi videotranslyatsiya qilinadi hamda ushbu video tasvirlar 1 yil davomida mutaxassislik kafedrasida saqlanadi.

15. Yakuniy davlat attestatsiya sinovlari bo'yicha yakuniy davlat attestatsiyasi komissiyalarining tarkibi oliy ta'lim muassasasi rektori (filial direktori) tomonidan bitiruv semestri boshlanishidan bir oy oldin tasdiqlanadi.

Zaruriyat bo'lganda attestatsiya sinovlarining biri bo'yicha bita rais rahbarligida bir nechta yakuniy davlat attestatsiya komissiyalari tuzilishi mumkin. Yakuniy davlat attestatsiyasi jarayonida O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Ta'lim sifatini nazorat qilish Davlat inspeksiyasi vakillari ishtirok etishlari mumkin.

Oliy ta'lim muassasalarining davlat attestatsiyasidan o'timagan yo'nalish va mutaxassislik bitiruvchilarining yakuniy davlat attestatsiyasi ushbu oliy ta'lim muassasasining yuqori turuvchi vazirlik (idora) tomonidan tashkil etiladigan davlat attestatsiya komissiyasi tomonidan o'tkaziladi.

#### IV. YAKUNIY DAVLAT ATTESTATSIVASINI O'TKAZISH TARTIBI

16. Yakuniy davlat attestatsiyasi sinovlari boshlanishidan oldin yakuniy davlat attestatsiya komissiyasi raislari bilan oliy ta'lim muassasasi rektori (filial direktori) shaxsan yakuniy davlat attestatsiyasi komissiyalarining tayyorgarlik darajasi, komissiya raislari va a'zolarining vazifalari, bitiruvchilarga qo'yilayotgan talablar, tartib-intizom to'g'risida yig'ilish o'tkaziladi.

17. Yakuniy davlat attestatsiyasi sinovlari yozma, test yoki og'zaki usulda tashkil etiladi va ushbu tartib oliy ta'lim muassasasi Kengashi qarori asosida ta'lim muassasasi rektori (filial direktori) tomonidan belgilanadi hamda yakuniy davlat attestatsiyasi boshlanishidan uch oy oldin talabalar e'tiboriga yetkaziladi. Talabalar sinov o'tkaziladigan fanlar dasturlari bilan ta'minlanadi, ularga tayyorgarlik ko'rish va mashahatlar berish uchun zarur sharoitlar yaratiladi.

18. Yakuniy davlat attestatsiyasiga tegishli o'quv reja va fan dasturlarini to'liq tugatgan va o'quv rejasida nazarda tutilgan barcha sinovlardan muvaffaqiyatli o'tgan talabalar qo'yiladi.

O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim muassasalari bitiruvchilari tegishli ta'lim dasturlarini to'liq o'tlashtirgandan keyin yakuniy davlat attestatsiyasidan o'tishlari majburiydir.

19. Yakuniy davlat attestatsiyasi sinovlari va diplom loyihasi yoki bitiruv malakaviy ish (magistrlik dissertatsiyasi) himoyasi yoxud majburiy fanlardan yakuniy davlat attestatsiya sinovi yakuniy davlat attestatsiya komissiyalarining ochiq majlislarida, a'zolarining kamida uchdan ikki qismi ishtirok etgan holda, rais ishtirok etmagan taqdirda rais o'rinbosari raisligida o'tkaziladi.

Diplom loyihasi yoki bitiruv malakaviy ish (magistrlik dissertatsiyasi) himoyasi yoxud majburiy fanlardan yakuniy davlat attestatsiya sinovi ishlab chiqarish bazasida tashkil etilgan kafedra filiallarida sohaning etakchi mutaxassislarini jabb holda o'tkazilishi mumkin.

Yakuniy davlat attestatsiyasiga kiritilgan barcha turdagi attestatsiya sinovlari bo'yicha o'zlashtirish ko'rsatkichi talabalar bilimni nazorat qilish va baholashning reyting tizimiga muvofiq aniqlanadi hamda yakuniy davlat attestatsiyasi komissiyasining majlis bayoni rasmiylashtirilgandan so'ng shu kunning o'zida e'lon qilinadi.

Yakuniy davlat attestatsiyasiga kiritilgan barcha turdagi attestatsiya sinovlarida mualliflikni o'zlashtirishga (plagiatsga) yo'l qo'yilmaydi. Bunday holat aniqlanganda davlat attestatsiya komissiyasi tomonidan bitiruvchiga tegishli attestatsiya sinovidan qoniqsiz baho qo'yiladi yoki qo'yilgan ijobiy baho bekor qilinadi.

20. Yakuniy davlat attestatsiya komissiyasi bitiruvchilarning yakuniy davlat attestatsiyasi sinovlari natijalari asosida ularga ta'lim yo'nalishi (mutaxassisligi) bo'yicha bakalavr (magistr) darajasi berish haqida qaror qabul qilinadi.

Yakuniy davlat attestatsiya komissiyalarining qarorlari ochiq ovoz berish yo'li bilan, majlisda ishtirok etuvchilarning ko'pchilik ovozi bilan qabul qilinadi. Ovozlar teng bo'lgan holda, raisning ovozi hal qiluvchi hisoblanadi.

21. Oliy ta'lim muassasasi bitiruvchisi yakuniy davlat attestatsiyasi tarkibiga kiritilgan yakuniy davlat attestatsiya sinovidan muvaffaqiyatli o'tgandan so'ng unga muvofiq darajadagi oliy ma'lumot to'g'risidagi diplom va uning ilovasi beriladi.

22. Fanlar dasturlarini o'zlashtirishda katta yutuqlarga erishgan va o'quv rejasidagi barcha fanlarning kamida 3/4 qismi bo'yicha 86 ball va undan yuqori (5 baholik tizimda 5 baho (a'lo) o'zlashtirish ko'rsatkichlariga erishgan, boshqa fanlar bo'yicha o'zlashtirish ko'rsatkichi 71 ball dan (5 baholik tizimda o'zlashtirish ko'rsatkichi 4 bahodan (yaxshi) kam bo'lmagan), shuningdek, yakuniy davlat attestatsiyasi sinovlari bo'yicha kamida 86 ball (5 baholik tizimda 5 baho (a'lo) o'zlashtirish ko'rsatkichlariga ega bo'lgan bakalavriat bitiruvchisiga «imtiyozli» diplom beriladi.

23. Yakuniy davlat attestatsiyasi sinovidan o'ta olmagan shaxs o'qish muddati tugagandan so'ng, arizasiga muvofiq yakuniy davlat attestatsiyasi sinovini keyingi 3 yil davomida qayta topshirish huquqiga ega.

Yakuniy davlat attestatsiyasi sinovidan o'ta olmagan shaxs keyingi o'quv yili boshlanganidan keyin yakuniy davlat attestatsiya sinovini qayta topshirishga ruxsat berishni so'rab oliy ta'lim muassasasi rektori (filial direktori) nomiga ariza bilan murojaat qilishi mumkin. Bunda, shaxsga yakuniy davlat attestatsiya sinovini keyingi har bir o'quv yilida (3 yil davomida) 2 marta dan ortiq qayta topshirishga yo'l qo'yilmaydi.

Yakuniy davlat attestatsiya sinovini qayta topshirishga ruxsat berish oliy ta'lim muassasasi rektorining (filial direktorining) buyrug'i bilan rasmiylashtiriladi.

24. Yakuniy davlat attestatsiyasi sinovidan keyingi 3 yil davomida qayta o'ta olmagan talabaga akademik ma'lumotnoma beriladi va u o'rnatilgan tartibda, to'lov-kontrakt asosida tegishli bitiruv kursiga o'qish uchun qayta tiklanishi mumkin.

26. Uzrli sabab bilan yakuniy davlat attestatsiyasi sinovlariga kelmagan talabalar rektorning buyrug'i bilan yakuniy davlat attestatsiya komissiyasining ishi yakunlanishiga qadar boshqa muddatlarda o'tkaziladigan yakuniy davlat attestatsiyasi sinovlariga kiritilishi mumkin.

27. Yakuniy davlat attestatsiyasi sinovlarida olgan bahosiga e'tiroz bildirgan bitiruvchilarning arizalarini ko'rib chiqish uchun oliy ta'lim muassasasi rektorining (filial direktorining) buyrug'i bilan apellyatsiya komissiyasi tuziladi.

Apellyatsiya komissiyasi oliy ta'lim muassasasining ilmiy-pedagogik kadrlari (apellyatsiya komissiyasi umumiy tarkibining 40 foizigacha), shuningdek tegishli sohaning malakali mutaxassislari, turdosh oliy ta'lim muassasalarining tajribali professor-o'qituvchi va ilmiy xodimlari orasidan kamida 5 kishidan iborat tarkibda shakllantiriladi.

Apellyatsiya komissiyasi tarkibiga joriy yilda yakuniy davlat attestatsiyasi komissiyasi ishida ishtirok etgan shaxslarning kiritilishi taqdimlanadi.

28. Yakuniy davlat attestatsiyasi jarayonida qo'yilgan bahodan norozi bo'lgan bitiruvchilar yakuniy davlat attestatsiyasi baholari e'lon qilingan kundan e'tiboran uch kun muddat ichida apellyatsiya komissiyasiga murojaat qilish huquqiga ega dirlar.

29. Apellyatsiya komissiyasi o'z xulosasini bitiruvchiga bir kun muddat ichida ma'lum qilishi lozim.

30. Yakuniy davlat attestatsiyasi komissiyasining ishi bo'yicha yillik hisobot o'liy ta'lim muassasasi Ilmiy Kengashida ko'rib chiqiladi. Mazkur Ilmiy Kengashga yakuniy davlat attestatsiyasi komissiyalari raislari taklif qilinadi.

#### V. YAKUNIY QOIDALAR

31. Mazkur Nizomda belgilangan qoidalar bo'yicha

nizozlar qonun hujjatlariga muvofiq hal qilinadi.

32. Ushbu Nizom O'zbekiston aloqa va axborotlashirish agentligi, "O'zbekiston temir yo'llari" DAK, Davlat soliq qo'mitasi, Badiiy akademiya, Navoiy kon-metallurgiya kombinati, Xalq ta'limi vazirligi, Sog'liqni saqlash vazirligi, Qishloq va suv xo'jaligi vazirligi, Madaniyat va sport ishlari vazirligi, Tashqi ishlar vazirligi va O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Davlat test markazi bilan kelishilgan.

"O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami", 2009-yil, 23-son, 267-modda.

#### 5110900-Pedagogika va psixologiya ta'limi yo'nalishti bitiruvchilari uchun

##### ixtisoslik fanlaridan

##### Yakuniy davlat attestatsiyasi sinovi og'zaki ishlarini

##### BAHOLASH MEZONLARI

Ixtisoslik fanlaridan bakalavriat yo'nalishtlariga yakuniy davlat attestatsiyasi sinovi og'zaki shaklda o'tkaziladi. Har bir variant 4 savoldan iborat. Variantdagi 4 ta savol 5 baho tizimida baholanadi.

Har bir savolga javob to'g'ri va to'liq yoritilsa, pedagogika va psixologiyaga doir zamonaviy nazariyalarni bilishi, mustaqil, aniq fikrlar asosida muammolarga ijodiy yondashgan holda yoritilsa, javobda mantiqiy yaxlitlikka erishilgan bo'lsa, o'zlashtirish ko'rsatkichi 5 (besh) baho bilan baholanadi.

Savolga to'g'ri javob bersa, ilmiy-amaliy jihatdan asosi mantiqli yoritilgan bo'lsa, biroq bugungi ta'lim va tarbiya jarayoni yangilanishlar amaliyoti bilan bog'lashda ayrim noaniqliklarga yo'l quyilgan bo'lsa, o'zlashtirish ko'rsatkichi 4 (to'rt) baho bilan baholanadi.

Savolga asosan to'g'ri javob bersa, biroq quyilgan masalaning mohiyati, mazmuni, natijalari yuzaki yoritilsa, fikr-mushohada bayonida tarqoqlik kuzatilsa, o'zlashtirish ko'rsatkichi 3 (uch) baho bilan baholanadi.

Savolga javoblar noto'g'ri bersa, o'quv adabiyotidan so'zma-so'z ko'chirilgan bo'lsa yoki savollarga, umuman, javob bermasa, o'zlashtirish ko'rsatkichi 2 (ikki) baho bilan baholanadi.

T.R.	Baho	Bakalavr talabasining bilim darajasi
1	5 (besh)	Quyilgan savollar mazmunan aniq yoritilib, siyosiy islohotlar va jarayonlarning mazmun-mohiyati to'liq ochib berilgan. O'zbekistonda ta'lim va tarbiya sohasidagi islohotlar tahlili va ularning amaliy samaralari, natijalari va hayotga tabiiq etilishi bo'yicha mustaqil, ijodiy fikr mavjudligi. Javoblarda mantiqiy yaxlitlikka erishilgan va umumiy xulosalar qilingan. Mustaqil fikrlaydi.

2	4 (to'rt)	Javob to'g'ri yoritilgan, unda siyosiy bilimlar asosli yoritilgan, ammo sana va sonlarda chalkashliklarga yo'l quyilgan. Javobda talabning mustaqil mushohada yuritish qobiliyati seziladi. Ijodiy yondashuv mavjud. Talaba muammoni tahlil qilish qobiliyati ega.
3	3 (uch)	Savolga javobda masalaning mohiyatini tushunilgan, ammo mazmun va natijalar yuzaki yoritilgan. Fikrlar bayonida tarqoqlik kuzatiladi. Javoblarda mantiqiylik tannoyili buzilgan. Tasavvurga ega, lekin tahlil yetarli emas.
4	2 (ikki)	Savol buyicha aniq tasavvurga ega emas. Umuman javob bermagan. Noto'g'ri javob va ma'lumot berilgan. O'quv adabiyotidan aynan so'zma-so'z ko'chirilgan

### 3.01. Pedagogik texnologiya fani dasturining asosiy nazariy qismi

#### 1- mavzu. Pedagogik texnologiya pedagogikaning mustaqil sohasi sifatida.

Pedagogik texnologiya fan sifatida. Pedagogik texnologiyaning asosiy kategoriyalari. Pedagogik texnologiyaning metodologik asoslari. Pedagogik texnologiya tushunchasi va uning o'ziga xos jihatlari: ilmiy, protsessual-tavsiy (tavsiyflash, o'quv jarayonini algoritmash). protsessual-harakatli (o'quv jarayonini amalga oshirilishi).

#### 2-mavzu. Pedagogik texnologiyaning rivoji.

"Texnologiya" tushunchasi. "Pedagogik texnologiya" tushunchasining paydo boishi. Pedagogik texnologiyaning tarixiy rivojlanish davrlari. XX asrda pedagogik texnologiyalarning rivojlanishi. Pedagogik texnologiyalar rivojining zamonaviy bosqichi. Pedagogik olimlarning «Pedagogik texnologiya» tushunchasiga ta'rifi.

#### 3-mavzu. Pedagogik texnologiyaning ilmiy asoslari

Pedagogik texnologiyaning darajalari: texnologik, umumiy pedagogik (umumiy didaktik), xususiy metodik (fanga oid), lokal (modulli).

Pedagogik texnologiyalarning tuzilishi: kontseptual asos, mazmunli qism, protsessual qism - texnologik jarayon. Pedagogik texnologiyalarga qo'yiladigan talablar: tizimlilik, boshqaruvli, samaradorlik, ishlab chiqarish.

Pedagogik texnologiyaning nazariy asoslari: moddiy va ideal, dialektik va ideal, ilmiy va diniy, insonparvar va insonparvarlikka qarshi, pragmatik va ekszistensial, erkin tarbiya nazariyasi va boshqalar.

#### 4-mavzu. Ta'lim jarayonida ta'lim oluvchi shaxsi

O'quvchi shaxsi ta'lim jarayonining obyekt va subyekti sifatida. Shaxs qiyofasining tuzilishi va uning to'rt darajasi: temperament, psixik jarayonlarning o'ziga xosligi, tajriba va shaxs vo'naliganligi. Bilim, ko'nikma va malakalar (BKM). Aqliy harakat usullari (AHU). Pedagogning innovasion faoliyati va uning tuzilishi.

#### 5-mavzu. Pedagogik tizim pedagogik texnologiyaning asosi

Pedagogik jarayon tizim sifatida. Pedagogik texnologiya tizimli yondashuv sifatida. Ta'lim texnologiyalarining tarkibiy qismi. Pedagogik texnologiyaning asosiy belgilari. Pedagogik texnologiyalar tasnifi: qo'llanilish darajasiga ko'ra; falsafiy asoslariga ko'ra; asosiy omillari bo'yicha; ilmiy kontseptsiyalar bo'yicha; bilish faoliyatini tashkil etish va boshqarish turiga ko'ra va b.

#### 6-mavzu. Pedagogik texnologiyalar tasnifi

Pedagogik texnologiyalar turlari, ana'anaviy va zamonaviy pedagogik texnologiyalar, o'yin texnologiyalar, jadalashiruvchi ta'lim texnologiyalar, muammoli ta'lim texnologiyasi.

#### 7-mavzu. Maqsadni belgilash ta'limni texnologiyalashirishning asosiy elementi

Ta'lim oluvchilar tomonidan bilim, ko'nikma va malakalarini o'zlashtirish darajalari. Ularga erishishning maqsad va natijalarini shakllantirish, talabalarning o'quv yutuqlarini nazorat qilish.

#### 8-mavzu. O'qitishni texnologiyalashirishda metod va vositalar

Ta'limni tashkil etish shakllar mohiyati va mazmuni, guruhlarini shakllantirish tamoyillari, ta'lim texnologiyasida o'qitish metodlarining o'lmi va ahamiyati, o'qitish metodlarini tasniflash, o'qitish metodlarini tanlash omillari.

#### 9-mavzu. Ta'limning "Keys-stadi" texnologiyasi

"Keys-stadi" tushunchasining mohiyati va uning kelib chiqish tarixi, Keys tipologiyalari, Keysni ishlab chiqish, "Keys-stadi" texnologiyasi tuzilishi yoki pedagogik pasporti.

#### 10-mavzu. Ta'lim ning shaxsga yo'natirilgan texnologiyasi

"Hamkorlik pedagogikasi" texnologiyasi va uning mazmuni va metodikasining o'ziga xosliklari: bolaga shaxs nuqta nazaridan yondashuv; bilim, ko'nikma va malakalarni umumlashiruvchi ta'lim; atrof-muhitni pedagogiza-tsiyalash. Tarbiya kontseptsiyasi. Frene maktabidagi ta'lim texnologiyasi.

#### 11-mavzu. Ta'limning "Loyiha" texnologiyasi

"Loyiha" tushunchasining mazmun va mohiyati. Loyihaviy ta'limning asoslari, O'quv loyihasi tushunchasi, "Loyiha" texnologiyasining ishlab chiqish qoidasi, "Loyiha" texnologiyasi tuzilishi yoki pedagogik pasporti.

#### 12-mavzu. O'quv jarayonini tashkil etish va sam arali boshqarish asosidagi pedagogik texnologiya

Tabaqalashirilgan darajadagi texnologiya: individual o'ziga xosliklari, yoshi, qiziqishlari, aqliy rivojlanish darajasi, sog'lomlik darajasi va b. Individual ta'lim texnologiyasi: ta'lim har bir o'quvchining qobiliyatlari bilan bog'liqlikda olib boriladi.

Axborot texnologiyalari: ta'limiy va nazorat qiluvchi dasturlar. Ta'limning jamoaviy va guruhiy texnologiyasi.

#### 13-mavzu. Tarbiya jarayonini texnologiyalashirish

Insonparvarlik pedagogikasi. Tarbiya san'ati va texnologiyasi. Yaxlit yondashuv. Tarbiyaviy ish.

## FOYDALANILADIGAN ADAVIYOTLAR RO'YXATI

1. Oshilov M. Yangi pedagogik texnologiyalar - Qarshi.: Nasaf, 2000 y.
2. Tolirov O., Usmonboeva M. Pedagogik texnologiyalarning tadqiqiy asoslari. - T.: 2005 y.
3. Sayidhammedov N. Yangi pedagogik texnologiyalar - T.: Molliya, 2003 y.
4. Ishmuhammmedov R. Innovatsion texnologiyalar yordamida ta'lim samaradorligini oshirish yo'llari. - T.: TDRU, 2005 y.
5. Колесненко А. К. Энциклопедия педагогических технологий - СПб.: КАРО, 2005 г.
6. Фарберман Б. Инг'ор педагогик технологиялар - Т.: "Фан ва технологиялар" 1999 й.
7. Селевко Г. Педагогические технологии на основе дидактического и методического усовершенствования УВП - М.: Юнност 2005 г.
8. Педагогические технологии / Под ред. Кухушина В. С. - М.: 2006 г.
9. Pedagogik texnologiya va pedagogik mahorat - T.: Fan, 2006 y.

### **3.02. Pedagogik mahorat fani dasturining asosiy nazariy qismi** **1-mavzu. Pedagogik mahorat haqida tushuncha, uning o'qituvchi faoliyatida tutgan o'rni**

O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida"gi Qonuni asosida o'qituvchi faoliyati mazmuniga qo'yiladigan talablar. O'qituvchining umumiy madaniy saviyasi va qobiliyati. O'qituvchilik faoliyatining tizimi, kasbiy mahorati haqida tushuncha. Pedagogik mahoratning tarkibiy qismlari va ularning mohiyati. O'qituvchi faoliyatining asosiy yo'nalishlari. Pedagogik bilimlar. Pedagogik zakovat. Pedagogik qobiliyat. Pedagogik texnika.

#### **2-mavzu. O'qituvchi faoliyatida pedagogik qobiliyat**

Qobiliyatning psixologik-pedagogik tavsifi. Pedagogik qobiliyatning asosiy turlari. Empatiya va pertseriyv qobiliyatlar. Didaktik, tashkilotchilik, konstruktiv, kommunikativ, bilish va anglash qobiliyatlari. O'qituvchi hodasi, sabr-toqati, maqsadga intilishi, o'z hatti-harakatlarining to'g'riligiga nisbatan qar'iy ishonchi, uning o'z-o'zini idora qilish hamda boshqalarga ta'sir o'tkaza olish qobiliyati, his-tuyg'ulari va kayfiyatini boshqara olishi, o'z zimmasiga javobgarlikni ola bilishi, ijodiy holatni tashkil eta olishi kabi sifatleri.

#### **3-mavzu. O'qituvchining kommunikativ qobiliyati**

Mulohot orqali ta'sir etish. Mulohotga kirishish. Aloqa o'rnatish (kommunikatsiya) tushunchasi, uning mohiyati, pedagogik ta'sir etish usullari. O'qituvchi tomonidan mulohotga kirishish jarayonida qo'llaniladigan muomala usullari. O'qituvchining kommunikativ ko'nikmasi: "Yuzni o'qish san'ati", o'zgalat holatini tushuna olish, o'zini namoyon qila bilish, nutq vositasi hamda so'zsiz holatda inson ruhini tushuna olish. O'qituvchi tomonidan o'quvchi bilan mulohotda bo'lish jarayonida qo'llaniladigan pedagogik ta'sir ko'rsatish usullari:

ishonitish va maqullash. Ishonitishning og'zaki shakllari: ogohlantiruvchi so'zlar, tezak bilan ta'sir etish, jiro etishga undovchi buyruqlar, taqirlangan iboralar, hazil orqali anglatish, maqullash yoki ayblash.

**4-mavzu. O'qituvchi faoliyatida mulohot madaniyati va psixologiyasi**  
"Mulohot" atamasining falsafiy, ijtimoiy, psixologik va pedagogik mohiyati, mulohot birligi. Pedagogik mulohot, uning o'ziga xos xususiyatlari. Pedagogik mulohotni tashkil etish madaniyati. Pedagogik mulohotni tashkil etish bosqichlari va usullari. O'quv-tarbiya jarayonida pedagogik mulohot jarayonini boshqarish usullari. Mulohot jarayonida tashabbusni boshqarish.

**5-mavzu. O'qituvchi va o'quvchi o'rtasidagi mulohot**  
Dars hamda darsdan tashqari jarayonda o'qituvchi va o'quvchilar o'rtasidagi mulohot, unga qo'yiladigan talablar. O'quvchilar jamoasida ularning e'tiborlarini jalb etish va ijodiy kayfiyatlarini yaratishda o'qituvchi mulohotining ta'siri va uning ahamiyati, o'quvchi bilan bo'lgan mulohot jarayonida o'qituvchi tomonidan ishonitish va ta'sir etish usullaridan foydalanish. Mulohot jarayonini boshqarish usullari. O'qituvchi obro'si. Avtoritar uslubdagi mulohot. Liberal uslubning o'qituvchi faoliyatida namoyon bo'lish xususiyatlari. O'qituvchining demokratik uslubdagi mulohoti - o'quvchilar fikriga tayanish, ushbu fikrlarni maqullash shakli. Ilimiy pedagogik adabiyotlarda berilgan mulohot turlari (do'stona mulohot, qo'lquv asosiga qurilgan mulohot, hazil-mulohibaga asoslangan mulohot va boshqalar) haqida.

**6-mavzu. Pedagogik nazokat va odob-axloq**  
Pedagogik odob va pedagogik nazokat haqidagi tushuncha. Pedagogik nazokat tamoyillari va uning vazifasi. Pedagogik nazokat me'yori: ixtisos sohasidagi burch, pedagogik adolat, ixtisosga doir vijdon izzat-nafs va pedagogik oriyat. Pedagogik nazokat-o'qituvchi ahloqining ijodiy ko'rinishi. Pedagogik nazokatning zarurligi. Pedagogik nazokatning mohiyati va xususiyati. O'qituvchining dars jarayonidagi nazokati. Nazokat va taktika.

**7-mavzu. Pedagogik texnika haqida tushuncha pedagogik texnikani shakllantirish usullari**  
Pedagogik texnika-o'qituvchining fe'l-avori, yurish-turishini tashkil etuvchi usullar majmuasi. Pedagogik texnika vositasi: verbal va nonverbal kommunikatsiya. Pedagogik texnikaning tarkibiy qimlari. O'qituvchining o'z ruhini holatini boshqara olish texnikasi. Ish va tashqi texnika. Psixotexnikaning ilmiy asoslari. Diqqatning taqsimlanishi, kuzatuvchanlik, muayyan obyektini tez angelay olish, aniq va yorqin tasavvur etish, badiiy sezgirlik. O'qituvchining tashqi qiyofasi va unga qo'yiladigan talablar.

**8-mavzu. Nutq texnikasi va noifqlik madaniyati**

Nutqning inson hayoti va jamiyat taraqqiyotidagi o'rni. Mutafakkirlar va pedagoglarning so'z va nutqning ijtimoiy jamiyatda tutgan o'rni va roli haqidagi qarashlari. Nutqning o'qituvchi va o'quvchi o'rtasidagi o'zaro mulqot jarayonidagi asosiy bog'lovchi vosita ekanligi. Nutq organlari, nutq apparati. Til va nutq. Og'zaki nutqning psixologik tuzilishi; maqsadi (nima uchun gapiryapman?), mazmuni (nima demogchiman?). Nutq madaniyati haqida tushuncha, uning unsurlari. Nutq texnikasi: nafas olish, ovozni yo'lga qo'yish, uning tozalanihi, talaffuz, nutq sur'ati. O'qituvchining nutq mahoratini takomillashtirish yo'llari.

#### 9- mavzu. O'qituvchining ta'lim jarayonidagi mahorati

O'qituvchining o'quvchilarni bilish (anglash) faoliyatini boshqarishdagi mahorati. Dars mazmunini o'quvchilar tomonidan o'zlashtirib olinishiga yordam beruvchi jihlatlar, ularning qiziqish va faolliklarini oshirish ko'nikmasini hosil qilish. O'qituvchi faoliyatida ko'tarinki ruh, yaxshi kayfiyat, ishga bo'lgan xohishning etakchi o'rin tutishi va ularni hosil qilish yo'llari.

#### 10-mavzu. O'qituvchining tarbiyachi sifatidagi mahorati

Tarbiyachi mahoratining mohiyati. Faoliyatni tashkil etishni oldindan tashhislash mahorati. O'quvchilarni o'rganish diagnostikasi. Jamoani o'rganishning asosiy mezonlari. Tarbiyaviy jarayonni tashkil etishda o'qituvchining o'z-o'zini tekshirishga yo'natirilgan diagnostikasining o'rni va ahamiyati. Tarbiyachi mahoratining tizimi: ijtimoiy, estetik, axloqiy hamda texnologik. Tarbiyachi faoliyatining asosiy ko'nikmalari.

#### 11-mavzu. O'qituvchining tarbiya texnologiyalari asosida faoliyat

olib borishi

Hozirgi kunda barkamol shaxsni tarbiyalash muammolari. Tarbiya texnologiyalarini modellashtirish. Tarbiyaviy jarayon va tarbiya mazmunini modellashtirish. Tarbiya qonuniyatlari va tarbiya mazmuni tamoyillarini modellashtirish. Tarbiya texnologiyalarini qo'llashda pedagogik vositalardan foydalanish. Tarbiya ko'rganlikni aniqlash (diagnostika).

#### 12-mavzu. O'qituvchi pedagogik faoliyatida kompyuter

texnologiyalaridan foydalanish

Pedagogik mahoratni oshirishda zamonaviy axborot texnologiyalarining ahamiyati. Ta'lim-tarbiya jarayonida kompyuter imkoniyatlaridan foydalanish. O'qituvchining kompyuter texnologiyalari asosida o'quvchilar bilimni nazorat qilishi. O'qituvchida zamonaviy axborot texnologiyalari imkoniyatlaridan foydalanish malakalarini shakllantirish yo'llari.

#### 13-mavzu. O'qituvchi pedagogik faoliyatida kasbiy refleksiyaning o'rni

Kasbiy refleksiya va pedagogik faoliyat. O'qituvchining kasbiy mahoratini rivojlantirishda pedagogik refleksiyaning ahamiyati. Pedagogik tashxislash asosida

o'qituvchining kasbiy rivojlanishini ta'minlash usullari. O'qituvchi faoliyatini pedagogik tashxislash.

#### 14-mavzu. O'qituvchi mehnatini ilmiy asosda tashkil etish

Pedagogik mahoratni shakllantirishning asosiy tamoyillari: yaxlit holda yondashuv; faol mulqot; pedagogik harakatning xilma-xilligi; pedagogik ta'sirining ko'p qirraliligi; nazariy bilim va amaliy malakalarning o'zaro bog'liqligi. O'qituvchi mehnatini nazariy va amaliy jihatdan tashkil etish va uning o'qituvchi mahoratini shakllantirishdagi ahamiyati. Maqsadning qo'yilishi-pedagogik faoliyatni tashkil etishning tayanch unsuri: maqsadning izchiligi.

#### FOYDALANILADIGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Ахмедова М.Т. Педагогик конфликтология. -Т.: Дабийёт уchrунглари, 2017. - 320 б.
2. Azizxodjaeva N.N. Pedagogik texnologiya va pedagogik mahorat. -T.: O'zbekiston yozuvchilar uyushmasi, 2006.-159 b.
3. Xoligov A. Pedagogik mahorat. -T.: Iqtisod-moliya nashriyoti, 2011. - 420 b.
4. Ziyomuxammedov B. Pedagogik mahorat asoslari. -T.: TIB-KITOB, 2009. - 183 b.
5. Бойбекова Г.Д., Холикова Г.Т., Маргумова Г. Педагогическое мастерство. Учебное пособие. Т.: 2002 - 63 с.

#### 3.03. Pedagogik va psixologik fanlarni o'qitish metodikasi fani dasturining

asosiy nazariy qismi

1-mavzu: Pedagogik fanlarni o'qitish metodikasi fanining predmeti, maqsad va vazifalari

Metodika tushunchasi. Pedagogik fanlarni o'qitish metodikasi fanining predmeti, maqsad va vazifalari. Pedagogik fanlarni o'qitish metodikasi fanining boshqa fanlar bilan o'zaro aloqasi. Pedagogik fanlarni o'qitish metodikasi fani prinsiplari

#### 2-mavzu. Pedagogik fanlar va ularning o'ziga xosliklari

Pedagogik fanlar tizimi va ularning o'zaro aloqasi. Pedagogika sohalarining o'ziga xos xususiyatlari

#### 3-mavzu. Zamonaviy didaktik kontseptsiyalar

